

“Quyosh-shamol” mobil elektr stansiyasi + mobil elektromexanik qurilma

Ishlanmaning tavsifi: O‘zbekiston sharoitida dehqonchilik uchun yaroqli erlarning 60-65% markazlashgan tizimdan elektr energiyasi bilan ta‘minlangan xolos. Qolgan xududlarga elektr tarmoqlarini tortib borish iqtisodiy samarasiz va energetik jihatdan energiya isroflarini ortishiga olib keladi. SHu ma’noda kattagina xududlar qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosidagi lokal-avtonom yoki mobil energiya ta‘minotiga muxtoj.

“Quyosh-shamol” mobil elektr stansiyasi+mobil elektromexanik qurilmani qo‘llab olis xududlarda kafolatlangan energiya ta‘minotning joriy etilishi asosida olis xuddagi energiya etishmasligi oqibatida foydalanishdan chiqqan ekin maydonlarida qishloq xo‘jalik maxsulotlari etishtirish, buning natijasida erlarning meliorativ xolatini yaxshilash, qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish imkoniyati yaratiladi.

«Quyosh-shamol” mobil elektr stansiyasi kunduzi soatiga o‘rtacha 4,8 kVt·s, kechasi esa 0.48 kVt·s elektr energiyasini ishlab chiqaradi. Bahor-yoz mavsumida sutkasiga 46 kVt·s elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Sug‘orish mavsumida (*mart-oktyabr oylari*) 12000 kVt·s ziyod elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega.

Mobil elektromexanik qurilma 3,6 kVt quvvatga ega bo‘lib, o‘simliklarga suyuqlik bilan ishlov berish, issiqxonalarda transport vositasi sifatida qo‘llanilishi mumkin.



Rasm-1.“Quyosh-shamol” mobil elektr stansiyasi + mobil elektromexanik qurilmaning transport va ishchi xolatlari

Qo‘llanilish sohasi: Qishloq va suv xo‘jaligi, O‘rmon xo‘jaligi, fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaliklari klasterlarida qo‘llaniladi.

Afzalliklari: Markazlashgan elektr ta‘minotida etishmovchiliklar mavjud bo‘lgan yoki umuman elektr energiyasi etib bormagan xududlar uchun energiya manbai sifatida foydalaniladi..

Loyixa mualliflari: **Boqiev A.A., Isaev R., Sarinsaxodjaev A.R., Nuralieva N.A.**

Doktorantlar: **Sultonov S., Botirov A.**

Tel: +998903511710

e-mail: abdujolol@mail.ru

